

IQLIM O'ZGARISHI INSON HUQUQLARI MUAMMOSI SIFATIDA: DAVLATLARNING XALQARO HUQUQIY MAJBURIYATLARI

Tojiyev Bekjon Isomiddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, talabasi

E-mail: bekjontojiyev1607@gmail.com

+99893-905-15-08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078077>

1) Kirish:

Tadqiqotning obyekti – xalqaro ommaviy huquq doirasida iqlim o'zgarishi natijasida inson huquqlarining buzilishiga oid yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar, xususan, ushbu jarayonda davlatlarning xalqaro huquqdagi huquqiy majburiyatlaridir

Hozirgi kunda iqlim o'zgarishi natijasida butun dunyo aholisi o'rtasida tahlikali bir muammo sifatida ko'rib borilmoqda, xususan ushbu global muammoni hal qilishda davlatlarning xalqaro huquqda majburiyatlarini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro huquqda, nafaqat xalqaro huquqda balki milliy qonunchilikda ham inson huquqlarini ta'minlash davlat funksiyalarining eng yetakchi ustuvor yo'nalishidan biri hisoblandi. Insonning asosiy huquq va erkinliklari sifatida qaralibotgan shaxsiy huquqlar, siyosiy huquqlari, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari, shu jumladan ekologik huquqlari ham mavjud bo'lib, har bir shaxs ushbu huquqlardan foydalana oladi va bu huquqlarni ta'minlash esa har bir davlatning majburiyati sifatida belgilab qo'yilgan. Iqlim o'zgarishi natijasida bugungi kunda juda ko'p davlat aholilari bundan aziyat chekishmoqda. Jumladan, Afrikaning qator davlatlarida bugungi kunda havo haroratining keskin oshib borishi natijasida aholining turmush tarzi og'irlashib bormoqda.

Xo'sh birinchi navbatda iqlim o'zgarishi nima? Uning inson huquqlariga qanday salbiy tomonlari bor? Davlatlar ushbu vaziyatda qanday siyosatni amalga oshirishlari lozim? Bu kabi savollarga birin-ketinlikda javob berish orqali mavzuni yoritib boramiz.

Iqlim o'zgarishi nima? Iqlim o'zgarishi bu butun dunyodagi o'rtacha haroratning davomli o'sishi va uning Yer iqlimiga o'tkazadigan ta'siri. Global haroratning hozirgi davrdagi ko'tarilishi inson faoliyati, xususan, sanoat inqilobidan beri qazib olinayotgan yoqilg'ining yoqilishi bilan bog'liq. Bilamizki, Yer yuzida mavjud bo'lgan bisoferani mavjud bo'lishi uchun asosiy kerakli bo'lgan qatlamlardan biri bu atmosfera qatlami bo'lib, uning asosini kislorod (O₂) tashkil etadi. Ammo so'ngi yillarda iqlimning keskin o'zgarishi natijasida butun biosfera qatlami aziyat ko'rmoqda. Jumladan, II jahon urushining yakunlanishi bilan butun dunyo ikki qutbga ajralib qoldi va barcha rivojlangan davlatlar o'z iqtisodiyotinin o'stirish maqsadida ko'pdan ko'p miqdorda zavod va fabrikalarni qura boshladi. Natijada butun dunyoda iqtisodiyot rivojlandi sanoat juda tez sur'atda rivojlandi, ammo ekologiyaga katta miqdorda zarar keltirishiga sabab bo'ldi.

Ekologiya katta miqdorda zarar keltirilishi natijasida butun dunyo aholisini tashvishga solib qo'ydi. Sababi, dunyo ekologiyasining o'zgarishi natijasida aholining ekologik huquqlarini buzila boshladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 49-moddasiga binoan, har kim qulay atrod-muhitga, shuningdek, u haqida ishonchli axborot olish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilib o'tilgan¹. Bu nafaqat O'zbekistonning milliy qonunchiligida, balki butun xalqaro

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., [03/23/837/0241](https://www.uzqonunchilik.uz/)-son

hamjamiyat tan olgan, inson huquqlari bo'yicha universal xarakterga ega bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topgan, O'z navbatida insonning ekologik huquqlari xalqaro standartlarda ko'rsatib o'tilishi bilan bir qatorda, davlatlarning ham ushbu masala bo'yicha qator majburiyatlari ham bor. Bundan tashqari milliy qonunchilik doirasida O'zbekistonda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni ham mavjud bo'lib, unda davlat insonlarning ekologik huquqlarini kafolatlab qo'yilgan bo'lib, fuqarolar qulay atrof-muhitda yashashlari uchun davlat o'z zimmasiga qator majburiyatlarni oladi².


2) Ilmiy nazariy qism:

Aslida iqlim o'zgarishi nima? Iqlim o'zgarishi keng tarqalgan, turlicha ta'sirga ega global muammodir. Bu davlatlarning xalqaro tizimdagi mavqeyidagi mavjud tafovutlarni va iqlim va atrof-muhit muammolariga huquqiy yechimlar bo'yicha kelishmovchiliklarni ochib beradi. Shuningdek, davlatlar iqlim o'zgarishi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni belgilash, zarar va davlatlarning sodir etgan harakatlari o'rtasida sababiy bog'liqlikni o'rnatish va ta'sirlangan tomonlar uchun tegishli kompensatsiya miqdorini belgilashning murakkabligini ta'kidlashadilar. Rossiya Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti Saratov filialining katta ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori X.C.Хижняк davlat (bu yerda Rossiya Federatsiyasi e'tirof etilmoqda) tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy siyosatni ishlab chiqish tamoyillarini, shu jumladan globallashuv sharoitida xalqaro hujjatlardan kelib chiqadigan tamoyillarni aniqlash masalasini o'rganadi³. Muallif o'zining ilmiy izlanishlarida, atrof-muhitni muhofaza qilish har qanday davlatning eng muhim milliy manfaatlaridan biridir. Buni uzoq muddatli manfaat deb hisoblash mumkin, chunki bu masala hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi⁴. Aslida ham shunday, ya'ni iqlim o'zgarishiga davlatning ta'sir qilishi natijasida butun dunyo aholisi dastlab ular uchun aziyat tug'dirmaydi, ammo keyinchalik davlatning qiladigan harakatlari natijasida iqlimda keskin o'zgarishlar, tabiiy va texnogen ofatlarning kelib chiqishi orqali jamiyat aziyat chekadi. Davlatning rivojlanishi uchun qilanayotgan ma'lum bir harakatlarning o'zi atrof-muhitni rivojlantirishga ham salbiy, ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol sifatida olaylik, deyarli barcha rivojlanib borayotgan davlatlarda dastlab aholiga qulaylik tug'dirish maqsadida tez tayyor bo'luvchi mahsulotlarni yetkazish uchun, deyarli barcha sohada yelim idishlardan keng foydalanishgan. Dastlab yelim idishda bir qator afzalliklar mavjud edi. Uni qayta ishlash imkoniyati mavjud edi. Lekin yelim idishlarni qayta ishlash natijasida katta miqdorda zaharli gaz mamlakatlarning atmosferasiga yoyilib yetdi. Natijada aholi orasida toza kislorodni olish foizi keskin tushib ketdi. Shuningdek, yelim idishlarni qayta ishlash ziyon deb ta'kidlaganlar uni yerostiga ko'mib tashlashni amalga oshirishgan, afsuski yelim idishlar yerostida ularni yo'q bo'lib ketish imkoniyati juda ham past bo'lganligi uchun buning ham ahamiyati pastlashib bordi.

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

³ Хижняк В.С. Принципы конституционно-правовой политики Рос сийской Федерации в области охраны окружающей среды в условиях глобализации // Правовая политика и правовая жизнь. – Москва, 2021. – № 3. – С. 44–50.

⁴ Хижняк В.С. Принципы конституционно-правовой политики Рос сийской Федерации в области охраны окружающей среды в условиях глобализации // Правовая политика и правовая жизнь. – Москва, 2021. – № 3. – С. 45.



Iqlim o'zgarishlaridan yana biri bu ozon qatlamining yemirilishi hamdir. Ya'ni Ozon qatlamining asosiy qismi stratosferada, yer yuzidan o'rtacha 15-50 km balandlikda joylashgan Xo'sh ozon qatlamini nima foydali tomonlari bor, uning ekologiyaga, iqlim o'zgarishiga qanday ta'siri bor? Ozon qatlamining o'zi juda zararli moddadan tashkil topadi, ya'ni Quyosh nurlari kislorodni yo'q qilishi natijasida paydo bo'luvchi ushbu qatlam Yer yuzidagi jamiyki jonzotlar va o'simliklarni quyoshdan chiquvchi xavfli ultrabinafsha nurlaridan asraydi. Ammo ushbu qatlamni yemirilishiga qanday sabablar mavjud. Avvaliga olimlar yuqori balandlikda uchuvchi raketalar, samolyotlar ta'sirida ozon yemiriladi, degan fikrni ilgari surishgan. Ozon qatlamining yemirilishiga nafaqat insoniyatning, balki tabiiy jarayonlarning ham o'ziga yarasha salbiy ta'siri bor. Vulqonlar uyg'onishi, yer qa'ridagi gazlarning ajralib chiqishi bu qatlamdagi tuynuklarni kengaytiradi. O'tgan XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning qudratli davlatlaridan bo'lgan SSSR va AQSh shuningdek dunyoning qator davlatlari birin ketinlikda koinotga ko'p miqdorda kosmik raketalarni uchirishdi. Haddan oshiq ko'p miqdorda kosmik raketalrning uchirilishi dastlab ziyon keltirmagan bo'lsada, keyinchalik bu ta'sir yer yuzida kelib chiqaruvchi qator global muammolarni keltirib chiqardi.Ya'ni ushbu omillar quyidagi muammolarni keltirib chiqara boshladi⁵:

— qatlamning yemirilishi natijasida katta miqdordagi quyosh radiatsiyasi yer yuziga yetib keladi;

— insoniyatda teri saratoni bilan kasallanish keskin ortib ketadi. Shifokorlar bu turdagi saratonlarni davolash juda murakkabligi haqida ogohlantirishmoqda;

— insonning kasalliklarga qarshi kurashuvchi immun tizimida susayish kuzatiladi;


— odamning eng muhim a'zolaridan biri — ko'zlar zararlanadi;

— hosildorlik pasayib ketadi

Shuningdek, XXI asrdagi eng yirik global muammolardan biri bo'lgan muzliklarni shiddat bilan erishi, nafaqat aholining , balki butun dunyo davlatlarining ham tashvishga solib qo'ydi. Muzlar quyoshdan kelayotgan issiqlikni koinotga qaytarib, yerni salqinlatib turadi. Qorong'i okean esa issiqlikni so'rib olishga moyil bo'ladi. Muzlar erisa, quyosh nurlarini qaytaruvchi vosita qolmaydi va global isish tezlashadi. Agar muzlar erisa, global suv sathi ham oshadi. Bu omil esa keyinchalik davlatlarning suv ostida qolish xavfini keltirib chiqaradi. Xo'sh eng yirik

⁵ www.xabar.uz 21.01.2018-yil

muzliklar sifatida ko‘rilyotgan Grenlandiya va Arktika va Antarktida muzliklari erishi qanchalik o‘rib borgan? 2011-2020 yillar oralig‘ida Grenlandiyada 3-5 trillion tonna muz erib ketgan⁶.



Bu – 1 yilda o‘rtacha 357 milliard tonna muz eriganini anglatadi. Hududda jami 1 million 700 ming kilometr maydon muz bilan qoplangan, agar ularning barchasi erib ketsa, dunyoda dengiz sathi 6 metrga ko‘tarilishi mumkin. Muzlar erishi oxirgi 40 yil ichida 21 foizga tezlashgan. Shuningdek, izlanishlar bu ikki qutbda muzlarning erishi 1990 yillardagidan 6 marta tezlashganini ko‘rsatgan⁷. Agar muzlarning erishi sekinlashmasa, dengiz sathi 2100 yilga borib, 71 santimetrغا ko‘tarilishi mumkin. Bu – qirg‘oqbo‘yi davlatlari yo‘q bo‘lib ketishi mumkin degani. Chunki insoniyatning qariyb 1/3 qismi qirg‘oq chizig‘idan 100 kilometr uzoqlikda yashaydi. Masalan, Tinch okeanida joylashgan Tuvalu va Marshall orol-davlatlari shundaylardan birinchilari bo‘lishi mumkin⁸.

Yuqoridagi qator muammolarni sanab o‘tdik, iqlim o‘zgarishini insoniyat uchun qanchalik xavfli va taxlikali ekanligini anglagan holda, ushbu vaziyatda davlatlar qanday majburiyatlarni o‘z zimmlariga olishlari zarur. Xalqaro iqlim o‘zgarishini yumshatish qonunining doktrinal tahlili: iqlim shartnomalari, inson huquqlari shartnomalari va xalqaro odatiy huquqning umumiy tamoyillari kabi muayyan hujjatlardan kelib chiqadigan iqlim o‘zgarishini yumshatish majburiyatlarini aniqlash va talqin qilish Gonkong Xitoy universitetining (Xitoy) huquq professori B. Mayerning kitobida keltirilgan. Muallifning ta’kidlashicha, iqlim o‘zgarishini yumshatish majburiyatlarining mazmunini aniq aniqlash qiyin bo‘lsa-da, sud tomonidan davlatning o‘z majburiyatlariga rioya qilishini ko‘rib chiqishning ba’zi amaliy usullari mavjud. Uning xalqaro iqlim o‘zgarishini yumshatish qonunini tahlil qilish unga davlatlar uchun beshta asosiy xalqaro huquqiy talabni aniqlash imkonini berdi.

⁶ Jordan Mendoza “Greeland’s ice sheet is melting so fast, it’s raising sea levels and creating global flood risk” 2021.03.11

⁷ <https://science.nasa.gov/climate-change/>

⁸ www.kun.uz 27.03.2022 “Muzliklar shiddat bilan eriyapti:dunyoni kutayotgan xavflar”

1. Davlatlar BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasi (4(1)(b) va 4(2)(a)-moddalar) va odatiy xalqaro huquqdan kelib chiqadigan iqlim o'zgarishini yumshatish uchun tegishli choralarni ko'rish va tegishli choralarni ko'rish bo'yicha umumiy majburiyatlarga ega.

2. Davlatlar, shuningdek, Parij iqlim kelishuvi bo'yicha o'zlarining milliy darajada belgilangan hissalarini (NDC) amalga oshirish uchun zarur choralarni ko'rishga majbur bo'lishdi.

3. Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar ba'zan iqlim o'zgarishini yumshatish majburiyatlarini nazarda tutishi mumkin, ammo faqat davlatning yumshatish harakatlari shartnoma bo'yicha huquqlarni samarali himoya qila oladigan darajada.

4. Davlatning iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha umumiy majburiyati, "xulq-atvor majburiyati" sifatida, ma'lum darajada harakat talab qiladi.

5. Davlatning umumiy yumshatish majburiyatlariga rioya qilishini tekshirishning eng ehtimoliy usuli davlatning tegishli tekshiruvni amalga oshirishda ko'rishi kutilgan zarur yoki boshqa jihatdan tegishli choralarni aniqlashga asoslangan. Ushbu choralar orasida hamkorlik, hushyorlik va davlat siyosatidagi izchillik ajralib turadi, ularning har birini aniqroq oqibatlariga ajratish mumkin⁹.

3) Huquqiy asoslari:

Ushbu mavzu yuzasidan qator xalqaro va milliy huquqiy manbalar mavjud bo'lib, bularni birin-ketinlikda tahlil qilamiz. Birinchi galda **1992-yilda BMT tomonidan qabul qilingan “Iqlim o'zgarishi bo'yicha” Doiraviy konvensiya** qabul qilingan. Ushbu doiraviy konvensiyaning asosiy maqsadi sifatida ushbu konvensiyani qabul qilgan davlatlar tomonidan ishlab chiqadigan har qanday tegishli huquqiy hujjatlarning yakuniy maqsadlari konvensiya qoidalariga zid bo'lishi, atmosferadagi issiqxona gazlari kontsentratsiyasini iqlim tizimiga xavfli atropogen aralashuvni oldini oladigan darajada barqarorlashtirishga erishishdan iborat¹⁰. Ya'ni bundan asosiy ko'zlangan maqsad aholining erkin va faravon hayot kechirishi uchun ularning qulay atrof-muhitdan foydalanishi va aholining barcha qatlamlarining ekologik huquqlarini, shu bilan birgalikda va boshqa huquqlarini amalga oshirishga yordam berishi kerakligi, bu erkinliklarni ta'minlab berish esa xalqaro hamjamiyat tomonidan, xususan, har bir davlat tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Ushbu konvensiyani qabul qilgan davlatlar uchun bu hujjat majburiy xarakterga ega bo'ladi. Shuningdek, ushbu konvensiyada Tomonlar ya'ni hujjatni qabul qilgan davlatlar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ushbu konvensiyada bir qancha prinsiplarni ham keltirib o'tgan. Ya'ni davlatlar iqlim tizimini insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun teng asosda va ularning umumiy, ammo tabaqalashtirilgan mas'uliyati va tegishli imkoniyatlariga muvofiq himoya qilishii kerakligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, ushbu konvensiyani qabul qilgan davlatlar iqlim o'zgarishi sabablarini oldindan ko'rish, oldini olish yoki minimallashtirish hamda uning salbiy oqibatlarini yumshatish uchun ehtiyot choralarni ko'rishii kerakligi aytib o'tilgan. Bu konvensiyani amalga oshirilishi hamda davlatlar tomonidan qay darajada faoliyat ko'rsatilayotganini nazorat qilish bo'yicha kotibiyat hamda yordamchi organlar ham tashkil etilishi belgilab qo'yilgan. Keyingi asosiy xalqaro hujjat sifatida **1987-yilda qabul qilingan “Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yciha” Monreal protokoli** hisoblanadi. Ozon

⁹ Mayer B. International Law Obligations on Climate Change Mitigation. – Oxford, 2023. – P. VII–VIII.

¹⁰ BMT “Iqlim o'zgarishi haqida” doiraviy konvensiya 1992. Nyu-York

qatlamini buzuvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli ozon qatlamini yemiruvchi moddalar (ODS) deb ataladigan 100 ga yaqin texnogen kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni tartibga soluvchi muhim ko'p tomonlama ekologik bitimdir. Atmosferaga chiqarilganda, bu kimyoviy moddalar stratosfera ozon qatlamiga zarar etkazadi, bu Yerning himoya qalqoni bo'lib, odamlarni va atrof-muhitni quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlanishning zararli darajasidan himoya qiladi. 1987-yil 16-sentabrda qabul qilingan Protokol bugungi kunga qadar umumbashariy ratifikatsiyaga erishish uchun noyob shartnomalardan biri hisoblanadi. Monreal protokoli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turli xil jadvallar bilan ("5-modda mamlakatlari" deb ataladi) turli xil ODSlarni iste'mol qilish va ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich pasaytiradi. Ushbu shartnomaga ko'ra, barcha tomonlar ODSning turli guruhlarini bosqichma-bosqich chiqarish, ODS savdosini nazorat qilish, ma'lumotlarning yillik hisoboti, ODS importi va eksportini nazorat qilish uchun milliy litsenziyalash tizimlari va boshqa masalalar bilan bog'liq aniq majburiyatlarga ega¹¹. Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar teng, ammo tabaqalashtirilgan mas'uliyatga ega, lekin eng muhimi, har ikkala davlat guruhi ham majburiy, vaqtga mo'ljallangan va o'lchanadigan majburiyatlarga ega. Milliy qonunchiliklarda ham iqlim o'zgarishini oldini olish va tabiatni muhofaza qilishga oid qator qonunchilik hujjatlari keltirilgan, jumladan O'zbekistonda amalga mavjud bo'lgan **“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun** mavjud bo'lib, ushbu qonunning asosiy maqsadi inson salomatligi uchun ekologik muvozanatni saqlash uchun respublikani samarali va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, jonli tabiatning turlari va genetic fondi boyligini saqlab qolish, ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish, ekologiya xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu qonunda asosan fuqarolarni huquq va majburiyatlarini o'z ichiga olishdan tashqari davlat va uning organlariga ham qator majburiyatlarni yuklab qo'yadi. Shuningdek, eng e'tiborli jihati agar xalqaro shartnomada ushbu Qonundagidan yoki O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa qonun hujjatidagidan o'zga qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanishi belgilab qo'yilgan¹².

4) Sudlov organlari amaliyoti:

Ushbu mavzu yuzasidan sud amaliyotiga yuzlanadigan bo'lsak, bizga ko'rinadigan misol sifatida 2015-yilda boshlangan “Uganda fondi Niderlandiya davlatiga qarshi” ishidir. Gollandiya ekologik guruhi, Urgenda fondi va 900 Gollandiya fuqarolari Gollandiya hukumatini global iqlim o'zgarishining oldini olish uchun ko'proq harakat qilishni talab qilish uchun sudga berishdi. Gaagadagi sudi Gollandiya davlatiga 2020 yilga borib 1990 yildagi darajadan 25 foizga pastroq issiqxona gazlari emissiyasini cheklashni buyurdi va hukumatning emissiyalarni 17 foizga kamaytirish bo'yicha mavjud va'dasini davlatning BMTning global harorat o'sishini havo haroratining 2 °C daraja oldingi sharoitlarda ushlab turish maqsadiga qo'shadigan adolatli hissasini qondirish uchun yetarli emas deb topdi. Sud, "iqlim o'zgarishi oqibatlarining jiddiyligi va iqlim o'zgarishining katta xavfi" tufayli davlat iqlim o'zgarishini yumshatish choralarini ko'rishi shart degan xulosaga keldi. Niderlandiya hukumati apellyatsiya uchun 29 ta asos taqdim etdi. Urgenda sudning Urgenda inson huquqlari bo'yicha Yevropa konventsiyasining 2

¹¹ <https://www.unep.org/ozonaction/who-we-are/about-montreal-protocol>

¹² A.N.Xodjimatrov, N.Ralimqulov, Sh.A.Xolmurodov, M.E.Djurayev. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish -T.: © «Инновацион рнвожланиш натриёт-матбаа уйк» 2020.

va 8-moddalarini ushbu jarayonlarda to'g'ridan-to'g'ri qo'llashi mumkin emasligi haqidagi qaroriga e'tiroz bildirgan holda o'zaro apellyatsiya berdi. 2018-yil 9-oktabrda Gaaga apellyatsiya sudi okrug sudining qarorini o'z kuchida qoldirib, 2020-yil oxirigacha issiqxona gazlari emissiyasini kamida 25 foizga kamaytirmaslik bilan Gollandiya hukumati EKIHning 2 va 8-moddalarida nazarda tutilgan g'amxo'rlik majburiyatini buzgan holda noqonuniy harakat qilmoqda, degan xulosaga keldi. Sud Urgendaning EKIHning yashash huquqini himoya qiluvchi 2-moddasi va EKIHning shaxsiy hayot, oilaviy hayot, uy-joy va yozishmalar huquqlarini himoya qiluvchi 8-moddasi bo'yicha da'vosini tan oldi. Sud Gollandiya hukumati EKIH bo'yicha ushbu huquqlarni iqlim o'zgarishining haqiqiy tahdididan himoya qilish majburiyatini olganligini aniqladi. Niderlandiya Oliy sudi esa 2019-yil 24-may kuni apellyatsiyani ko'rib chiqdi. 13-sentabr kuni Advokat va Bosh prokuror, mustaqil sud xodimlari Oliy sudga qarorni o'z kuchida qoldirishni tavsiya qilgan rasmiy xulosa chiqarishdi. 2019-yil 20-dekabrda Niderlandiya Oliy sudi EKIHning 2 va 8-moddalariga asosan qarorni o'z kuchida qoldirdi.

5) Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda so'ngi 50 yil davomida iqlim o'zgarishi inson huquqlarini amalga oshirga to'sqinlik qilib turgan bir paytda, ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun dunyo hamjamiyati buni oldini olish uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, yuqorida sanab o'tilgan xalqaro shartnomalarni, konvensiya va protokollarning ishlab chiqarilishi, shu bilan bir qatorda ushbu hujjatlarni qabul qilgan davlatlar ham o'z qonunchiliklarini yaratishmoqda, shuningdek ushbu xalqaro hujjatlarni implemetatsiya qilish orqali davlatlar fuqarolarning oldida turgan majburiyatlarni bajarishini ko'rib chiqdik. Shu bilan bir qatorda xalqaro va milliy qonunchilikda nazarda tutilgan normalar va prinsiplarni yaxshi va samarali ishlashini nazorat qiluvchi yangi tuzilmalar tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarni amalga oshirish orqali inson huquqlarini ta'minlashimiz va davlat oldiga qo'yilgan majburiyatlarini amalga oshirishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. United Nations Framework Convention on Climate Change (UNFCCC), 1992
2. Kyoto Protocol to the UNFCCC, 1997
3. UN General Assembly Resolution 76/300 "The human right to a clean, healthy and sustainable environment" (2022)
4. International Court of Justice, Advisory Opinion on the Obligations of States in respect of Climate Change, 2025
5. Urgenda Foundation v State of the Netherlands, Supreme Court of the Netherlands, 2019
6. Knox, J.H. (2018). Human Rights and Climate Change. United Nations Human Rights Council Report A/HRC/37/59
7. Center for International Environmental Law (CIEL) (2023). Human Rights Treaty Bodies on Climate Change and State Obligations
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil)
9. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun 1992-yil
10. "Ozon qatlamini buzuvchi moddalar bo'yciha " Monreal protokoli 1987-yil
11. "Iqlim o'zgarishi bo'yicha" Doiraviy konvensiya BMT 1992-yil

12. теоретико-правовой анализ международных документов универсального и регионального характера о свободе совести, убеждений и религии. Каспийский регион: политика, экономика, культура. № 4 (57). 2018 г.
13. Бурьянов, С. А. Международно-правовые документы в области свободы совести и практика их реализации в Российской Федерации: Теоретико-прикладное исследование за 2011 год / С. А. Бурьянов. – Москва : Московская Хельсинкская группа, 2012. – 244 с.